

INFORMATIKA VA AT TO'GARAK O'QUVCHILARI BILAN SINFDAN TASHQARI TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA MILLIY HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH

Xujanova Saboxat Xasanovna

*Surxondaryo viloyati Denov tumani 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Informatika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: O'quvchilarni har tomonlama komil insonlar qilib tarbiyalash, ularni sog'lom, yetuk va turli gadjetlarga bog'lanib qolmasliklaridan himoyalash. AKTdan oqilona va o'z o'rnida foydalanishga o'rgatish. Turli gadjetlardan vaqtincha bo'lsa ham uzoqlashtiradi. Milliy harakatli o'yinlarimiz ommalashadi. Tadbir maktab sportzalida o'tkaziladi.

Kalit so'zlar: krossvord, test, tezkor savollar, milliy harakatli o'yinlarimiz, argimchoq, do'ppi, internet, ijtimoiy tarmoqlar.

Tadbirning noan'anaviyligi shundaki 8- sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan bu tanlovda o'quvchilar faqatgina savollarga oddiygina javob berib qolmasdan balkim milliy harakatli o'yinlardan foydalangan holda javob berishadi. Bu kabi tadbirlarni tashkil etish o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos keladi. Informatika va AT to'garaklarida jismoniy zo'riqish paydo bo'ladi, bu kabi tadbirlar esa jismoniy zo'riqishning oldini oladi. Milliy harakatli o'yinlarimizga hurmatini oshiradi va targ'ib qiladi.

Tadbir Informatika va AT fanidan to'garakga qatnashib yurgan o'quvchilar orasida o'tkaziladi. Bugungi tanlovimiz 8-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilib u quyidagi shartlarni qamrab oladi. Tadbir Informatika va AT fani o'qituvchisi tomonidan olib boriladi va shartlar o'qib eshittiriladi.

1-Shart: Uyga vazifa sifatida berilgan bo'lib o'quvchilar o'zlarining guruhlarini tanishtiradilar. Masalan guruhlarini "al-Xorazmiy", "Farobiy", "Vosil Qobilov", "Yosh dasturchilar", "Yosh Informatiklar" kabi nomlash mumkin. O'quvchilar guruhlarini tanishtirish bilan bir qatorda guruh maqsadi, shiori bilan tanishtiradilar. Bu shartda o'quvchilar guruhlarida haqida albatta videorolik yoki slayd namoyishidan foydalanishi shart deb belgilanadi.

2-shart: "Kim oladiyo shuginani yo" milliy xalq o'yinlaridan biri. Bunda do'ppi ichida 8-sinflarga mo'lajallangan testlar solib qo'yiladi. O'quvchilar kompyuterda test savollariga javob berishlari kerak. Guruhdagi o'g'il bolalardan biri do'ppi ichidagi testni ajratib oladi. Bunda o'quvchilardan epchillik va chaqonlik talab qilinadi. Chaqonlikdan so'ng esa testlarga javob berish uchun bilim talab etiladi. Mavzuga oid yangi ma'lumot: Bu testlar Internetdan

foydalangan holda Online TestPad dasturida olinadi, chunki bu dasturda o'qituvchi tomonidan tayyorlangan testlar avtomatik baholanadi va to'plagan balliga qarab elektron sertifikat taqdim etiladi.

3-shartimiz Estafeda sharti hisoblanib bu shartda o'quvchilar sportzalning bir tomonida A3 formatda shartlari berilgan krossvordni tayoqchani bir biriga yetkazgan holda yozib keladilar. Shu tariqa o'quvchilarning chaqonligi va bilimi yana bir bor sinaladi.

1	4) I	J	T	I	M	O	I	Y										
	S																	
	T																	
	A		2,5) T	A	R	M	O	Q	L	A	R							
	G		E															
	R		L		6) Y													
3) F	A	C	E	B	O	O	K											
	M		G		U													
			R		T													
			A		U													
			M		B													
					E													

4-Shart: Tezkor savollar orqali yig'ilgan ballar 5-shart uchun jamlanadi. Bu shartda o'quvchilar guruhdagi qizlar ishtirok etadi, arg'imchoq sakrab turgan holda berilgan savollarga javob beradilar. 2 daqiqa ichida nechta savolga javob bera olsa 5-shartdagi "Xo'rozlar jangi" shartida guruh sardoriga u to'plagan ballar urinishlar sonini belgilab beradi.

5-shart: "Xo'rozlar janji" bu shartda o'quvchilar 4-shartda to'plagan ballari bo'yicha bellashadilar. Bu tanlovda guruh sardorlari yoki guruhdagi jismonan baquvvat o'quvchilar qatnashishlari mumkin. Bu shartda 2ta raqib guruhlardan 1 nafardan o'quvchilar tanlab olinadi. Ular o'quvchilardan tashkil etilgan doira yoki sportzalda chizilgan doiradan foydalanishlari mumkin. Tanlangan 2 o'quvchi bir oyoqda bir qo'li bilan ushlagan holda, yoki arqon bilan bog'langan holda oquvchilar bir oyoqda 4-shartda nechta savolga javob bera olgan bo'lsa shuncha marta urinishda faqat elkasi bilan raqibni turtgan holda doira tashqarisiga chiqarishi kerak bo'ladi. Urinishlardan mufavaqiyatli foydalana olib raqibini doira tashqarisiga chiqarib bilgan o'quvchi guruhi g'olib hisoblanadi.

Tanlov so'ngida barcha qatnashgan guruhlar ballari jamlanib g'olib guruhlar taqdirlanadi. Tadbir barcha o'quvchilar uchun juda qiziqarli o'tadi. Doimiy tanlovlardan farq qiladi. O'quvchilarmizni milliy harakatli o'yinlarimiz bilan

yaqindan tanishtiradi. Jismonan sog'lom bo'lishlariga zamin yaratadi. AKTdan oqilona va o'z o'rnida sport bilan hamohang olib borishga o'rgatadi. Turli gadjetlarga bog'lanib qolmaslikdan chalg'itadi. Biz ustozlar milliy harakatli oyinlarimizni o'quvchilarimiz o'rtasida targ'ib etishda mas'ul hisoblanamiz. Chunki hech kimga sir emaski bugungi kunda aksariyat o'quvchilarimiz turli gadjetlarga bog'lanib qolgan, ular uzluksiz kompyuter o'yinlari o'ynashib, o'yinlar orasida yoki har 20-30 daqiqada jismoniy mashqlar, ko'z mashqlari va badan gimnastikasi kabi mashqlarni qilishni unutib qo'yishgan. Inson kompyuterda uzluksiz ishlashi natijasida, o'zi bilmagan holda, tanasiga, shikast yetkazib olishi mumkinligini bilmaydi. Bunda ish o'rnida noto'g'ri o'tirishi, uzoq vaqt monitorga tikilish, natijasida ko'zlarini zo'riqtirishiga sabab bo'ladi. Olimlarning ta'kidlashicha, kompyuterda uzoq vaqt ishlash jarayonida ko'z nurining pasayishi va ko'rish qobiliyatining susayishi tezroq sodir bo'lishi mumkinligini isbotlashdi. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida esa milliy harakatli o'yinlarimiz bilan birgalikda olib boriladigan tadbirlar har tomonlama ahamiyatga egadir. Bu kabi noan'anaviy tadbirlarni o'quvchilar o'rtasida o'tkazib turishni tavsiya etgan bo'lardi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet ma'lumotlar
2. 8-sinf amaldagi darslik va o'qituvchi kiobi;
3. Usmanov "Mavzulashtirilgan testlar to'plami"